

O'qitiladigan fanlar

Bakalavriyat bosqichida

Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1. Nasos va nasos stansiyalari	Barcha nasoslarni turlari, ishlash prinsiplari, konstruksiyalari va qo'llanish sohalari, nasos stansiyalari turlari, ulardagi gidrotexnik inshootlar, asosiy va yordamchi gidromexanik va gidroenergetik jihozlarni konstruksiyalari, ularni loyihalashtirish va foydalanish o'rgatiladi.
2. Quduqli nasos qurilmalari	Mavjud quduqli nasos qurilmalarni konstruksiyalari, ishlash prinsiplari, qo'llanish sohalari va ularni loyihalashtirish, foydalanish prinsiplari o'rgatiladi
3. Nasos stansiyalaridan foydalanish	Nasos stansiyalarda ishlatiladigan gidrotexnik inshootlar va barcha gidromexanik va gidroenergetik jihozlarga xizmat ko'rsatish, ularni ta'mirlash tartib-qoidalarini o'rgatiladi.
4. Gidroenergetik qurilmalardan foydalanish	Gidroenergetik qurilmalar konstruksiyalari tahlil qilinadi va ulardan foydalanish qonuniyatlari o'rgatiladi
5. Gidroenergetik inshootlar	Gidroenergetik inshootlar turlari, konstruksiyalari, qo'llanish sohalari va ulardan foydalanish o'rgatiladi
6. Gidromashinalar	Nasoslar, gidroturbinala va gidroturbonasoslar ishlash prinsiplari, konstruksiyalari, qo'llanish sohalarini o'rgatadi
7. Noan'anaviy energiya manbalari	Er yuzidagi umumiy energetik resurslar va ularni baholash, energiya manbalari hamda ularning dunyo mamlakatlarida qo'llanilayotgan turlari. O'zbekiston Respublikasida gidroenergetikaning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqboli o'rgatiladi.
8. Irrigatsiya tarmoqlari suv energiyasidan foydalanish	Gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, irrigatsiya tarmoqlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, daryo o'zanlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, gidroelektrostansiyalar gidrouzellarini loyihalash va qurish bo'yicha o'rgatiladi.
9. Nasos va gidroelektr stansiyalari	Nasoslar va nasos stansiyalari tanlashda texnik-iqtisodiy taqqoslash, daryo uzanlarida nasos qurilmalari va stansiyalarini loyihalash va qurish; gidroelektrostansiyalarni tanlashda texnik-iqtisodiy taqqoslash, nasos stansiyalar va gidroelektrostansiyalar gidrouzellarini loyihalash va qurish bo'yicha o'rgatiladi.

10.	Suv energiyasidan foydalanish	Gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, irrigatsiya tarmoqlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, daryo o'zanlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, gidroelektrostansiyalar gidrouzellarini loyihalash va qurish bo'yicha o'rgatiladi.
11.	Xizmat ko'rsatishni boshqarish	Gidroenergetik qurilmalar va uning tarkibiga kiruvchi gidromexanik va gidroenergetik jihozlarni samarali foydalanishni tashkil qilish, murakkab texnik xizmat ko'rsatishni boshqarish va ularni takomillashtirish. xamda iqtisodiy baxolash o'rgatiladi.
12.	Minigidroelektroenergetika	O'zbekiston Respublikasida mini va mikrogidroenergetik qurilmalari ahamiyati va rivojlanishi, hisoblash uslubi, turlari va konstruksiyalari, irrigatsiya tarmoqlaridagi kichik, mini va mikro gidroelektrostansiyalar ishlash prinsiplari, kichik daryo uzanlarida, kanallarda va kollektorlarda gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish usullarini o'rgatiladi.

Magistratuta bosqichida

	Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1.	Nasos stansiyalari va qurilmalari	Barcha nasoslarni va qurilmalarini turlari, ishlash prinsiplari, konstruksiyalari va qo'llanish sohalari, nasos stansiyalari turlari, ulardagi gidrotexnik inshootlar, asosiy va yordamchi gidromexanik va gidroenergetik jihozlarni konstruksiyalari, ularni loyiha-lashtirish va foydalanish o'rgatiladi.
2.	Nasos stansiyalaridan foydalanish va diagnostikasi	Mavjud nasos stansiyalardagi gidrotexnik inshootlar va jihozlardan foydalanish, ularni diagnostika qilish o'rgatiladi
3.	Gidroenergetik qurilmalar	Gidroenergetik qurilmalar turlari, konstruksiyalari, qo'llanish sohalari va ulardan foydalanish o'rgatiladi
4.	Irrigatsiya tarmoqlari suv energiyasidan foydalanish	Gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, irrigatsiya tarmoqlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, daryo o'zanlarida gidroelektrostansiyalarni loyihalash va qurish, gidroelektrostansiyalar gidrouzellarini loyihalash va qurish bo'yicha o'rgatiladi.
5.	Nasos stansiyalarini loyihalash va nasos qurilmalarini sinash	Nasos stansiyalarini loyihalash, sinash asoslari, nasos stansiya jihozlari va inshootlarini tanlashda texnik-iqtisodiy taqqoslash, sug'orish nasos stansiyasi texnik loyihasini bajarish, nasos qurilmalarini sinash bo'yicha o'rgatiladi.

-
- | | | |
|----|-------------------------|--|
| 6. | GES. Nasos stansiyalari | Gidroelektrostansiyalar va nasos stansiyalari sohasida ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, loyixalash, qurish, qayta qurish va ishlatish muammolari, gidroelektrostansiyalar va nasos stansiyalarni loyihasi, qurilishi va ekspluatatsiyasi o'rgatiladi. |
| 7. | Gidroenergetika | Jahon gidroenergetikasining hozirgi holati, muammolari va rivojlantirish yo'llari, har hil turdagi GEQlarni loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilishda nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'rgatiladi. |
| 8. | Kichik kuchli GES | Qichiq gidroelektrostansiyalarni loyihasi, qurilishi va ekspluatatsiyasini hisoblash o'rgatiladi. |
-